



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MAQOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI

Maksumova F.K

Andijon davlat pedagogika insituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Maqomning tarixiy-nazariy ilm maktabi yoritib berilgan. Maqom san'atining tarixini va nazariyasi tub mohiyatini kelib chiqishi, taraqqiyoti atroflicha o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar:

maqom, maqom ta'limi, pedagogika, maqom musiqa nazariyasi, Sharq notasi.

Аннотация.

В данной статье рассматривается историко-теоретическая школа о науке макоме. Изучены история и теория искусства макома, их основная сущность, происхождение и развитие.

Ключевые слова:

маком, обучение макома, педагогика, теория музыкального макома, восточная нота.

Abstract.

This article examines the historical and theoretical school of the science of maqom. The history and theory of the art of maqom, their basic essence, origin and development are studied.

Keywords:

maqom, maqom teaching, pedagogy, theory of musical maqom, eastern notes.

Maqom ilmi tarixiy-nazariy ilm sifatida ma'lumotlarni IX-XIV asrlarning qomusiy olimlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin ash-Sheroziy)ning musiqa bag'ishlangan risolalarida musiqiy-nazariy va musiqiy-estetik qarashlari keng qamrovli ilmiy-nazariy asosda bayon etilganligini kuzatishimiz mumkin. XV-XVIII asrlar davomida ijod qilgan sozanda, xonanda va bastakorlarning faoliyatini, maqomchilik san'ati ustida ish olib borgan ijodkorlarga ijobiy hamda tanqidiy fikrlarni Alisher Navoiy, Darvesh ali Changiy kabi olimlarning risolalaridan ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Abu Nasr Forobiyning musiqa risolalarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi. Bilamizki, Ibn Sino jahon musiqasida birinchi bo'lib sof soz tizimini aniqlagandir. Shuni alohida aytish kerak-ki, Safiuddin Urmaviy o'z asarlarida "O'n ikki maqom" ("Duvozdahmaqom"), "Ovoza" va "Sho'ba"lar masalasini birinchi bo'lib tizimlashgirib berdi. Qutbiddin ash-Sheroziy musiqa nazariyasi va amaliyotining birinchi galdagi vazifasi insonni komolotga boshlash deb bilgan bo'lib, uning ta'limotida komillikning mezoni – musiqaning tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siridir.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar"), "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asarlarida qator kasb egalari, shoir, yozuvchi va olimlar, sozanda, xonanda-yu bastakorlar ijodi xususida ma'lumotlar bayon etilgan. Darvesh ali Changiyning "Tuhfat us-surur" ("Shodlik tuhfas") risolasida 350 ga yaqin sozanda, xonanda va bastakorlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [1]. Bu kabi

ma'lumotlarni yana keltirib o'tish mumkin. Faqat musiqa ohangdan iborat va bu ohang qancha risolalarda ta'riflanmasin, uning ijro mazmunini his qilishning imkoni yo'q. Shu sababdan o'zbek maqomlarini ustozdan shogirdga og'zaki tarzda yetib kelganligi bot-bot takrorlanadi.



XIX asrga kelib ijro etilayotgan ohangni yozib olish, keyingi gal yoki boshqa ijrochi huddi o'shandek ijro etishi uchun imkoniyat yaratila boshladi. Bu ishni XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Pahlavon Niyoz Muhammad (taxallusi Komil Xorazmiy, 1825–1897) o'zi kashf etgan "Tanbur chizig'i" nomli o'ziga xos "nota yozuvi" vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni uning o'g'li – Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan. O'ng tomondan chapga qarab o'qilgan mazkur "nota yozuvi" da tanbur pardalariga oid 18 ta muvoziy chiziqlar

bo'lgan va bunda sadolanishi (bosilishi) lozim bo'lgan pardalar nuqtalar vositasida belgilangan. Ushbu kashf etilgan nota tizimida mavjud ayrim tushunmovchiliklar, chalkashliklar sabab, XX asrga kelib to'liq voz kechilgan.

Bugungi kunda dunyo qolipida bir xil tan olingan nota yozuvi bizni yurtlarga ham kirib kelgan. Ushbu ishga jonbozlik ko'rsatgan inson Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat birinchi o'zbek professori. 1922-1923 yillar *Buxoro Xalq Sho'rolar Jumxuriyati (BXSHJ)* maorif noziri lavozimida ishlagan kezlari bu faoliyati yanada kengaytirildi. Fitrat musiqiy ta'limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo'lga qo'yishni ko'zlab, Buxoro shahrining Ravg'angaron guzarida BXSHJ hukumati tomonidan o'ziga in'om etilgan hovli (hozir xususiyashtirilgan 8-uy)da ixtisoslashgan musiqa maktabi tashkil etdi. Bu maktab "Sharq musiqa maktabi" deb atalib, Yevropacha usuldagi musiqa maktabidan farq qilar, unda ta'lim jarayoni Sharqona ustozu-shogird saboqlari asosida qurilgan edi. Unga BXSHJ hukumatining



1921-yil 10-avgustdagi farmoyishi bilan Abdurauf Fitrat direktor, Domla Halim Ibodov ilmiy mudir etib tayinlangan edi. Abdurauf Fitratning 1927-yil nashr etilib, 1993-yil qayta nashr etilgan "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida o'zbek klassik musiqasi tarixini yoritishda qator masalalarga to'xtalib o'tilgan. Xulosa qismida esa musiqiy ishlarni jonlantirish sohasidagi tashabbuskorligi ahamiyatga molik. Istiqbol rejalarida keltirib o'tilgan-ki, maktabni ilk bitiruvchilari Rossiyadagi musiqa texnikumlari, musiqa institutlariga yuborish orqali musiqamizning kelajakdagi o'rni, nufuzi shu talabalarning xizmatlari bilan ko'rinadi deya ta'kidlab o'tgan [1]. Demak, XX asrga qadar maqom ilmining asosiy jarayoni og'zaki tarzda ustoz-shogirdlik maktabida shakllangan, davom etgan bo'lsa, XX asrdan boshlab, mavjud uch xonlikning tugatilishi munosabati bilan maqom bilimdonlari saroydan tashqarida qoladi. 1923-yili A.Fitratning tashabbusi bilan V.Uspenskiy Buxoroda maqom bilimdonlari Ota G'iyos Abdug'ani, Ota Jaloliddin Nosirov va Domla Halim Ibodovlardan "Shashmaqom" turkumini yozib oldi. Ota G'iyos Abdug'anidan mushkilot bo'limini, Ota Jaloliddin Nosirovdan esa nasr bo'limini yozib oladi. 1924-yili "Olti musiqali poema "Shashmaqom" nomi bilan Moskvada nashr etildi. Ammo ushbu nashrda ayrim kamchiliklar mavjud edi:


1. “Shashmaqom” turkumini nasr bo‘limi matnsiz faqat notalarni o‘zi yozilgan edi.
2. “Shashmaqom” turkumini nasr bo‘limi ikkinchi guruh sho‘balari ham kiritilmagan edi.

Albatta, bunday kamchiliklar, ilk bor o‘zbek-tojik Shashmaqomini notaga olishdek xayrli ish oldida, kichik kamlik hisoblanadi. Aslida esa, o‘zbek, balki zamonaviy tojik maqomshunosligining qaror topishi, shakllanishi va taraqqiy etishida tamal toshi vazifasini bajardi [2].

“Sharq musiqa maktabi” haqida V.M.Belyayevning 1930-yil “Alanga” jurnalining №2 sonida nashr etilgan tadqiqoti “Buxoro musiqa maktabi haqida” [3] deb nomlangan maqolani ham eslab o‘tish o‘rinlidir. Tadqiqot o‘zbek tilida, lotin alifbosida nashr etilgan, bugungi kunda bu ma‘lumotlar butkul oydinlashgan va ilmiy-amaliy ahamiyati to‘liq yoritilgan, lekin o‘sha vaqt uchun qimmatli va hozirgi kun nazari bilan qaralganda tarixiy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning musiqa ta‘limida maqom san‘ati ilmini boshlang‘ich yoki o‘rta bo‘g‘indan topish bir muncha mushkil. Buni albatta oliy ta‘lim O‘zbekiston davlat konservatoriyasi hamda yangi tashkil etilgan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti faoliyati misolida tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 1972-yilda musiqashunos olim, san‘ashunoslik fanlari doktori, professor F.M.Karomatov tashabbusi bilan tashkil etilgan “Sharq musiqasi” kafedrasini boshladi. Kafedra shu bugunga qadar bosqichma-bosqich rivojlanib, kengayib bordi. Hozirda yangi ochilgan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti fikrimizni yorqin isbotidir. O‘sha vaqtda kafedra bo‘lib ochildi, bugungi kunda alohida oliy ta‘lim dargohi darajasigacha ko‘lami kengaydi.

Endilikda bu oliy ta‘lim dargohida uchta kafedra maqom san‘atining ilmiy-ijodiy taraflaridan kasb sirlarini o‘rgatib, mutaxassis tayyorlaydi. “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini, An‘anaviy ijrochilik yo‘nalishida “An‘anaviy xonandalik” hamda “An‘anaviy cholg‘u ichrochiligi” kafedralari mavjud. Keltirib o‘tilgan uch kafedraning tayanchi, negizi 1972-yil ochilgan “Sharq musiqasi” kafedrasiga borib taqaladi. Ishimizni bir bo‘lagi sifatida olingan tarixiy-nazariy fanlarda maqom san‘ati ilmi hali-hamon izlanishlar, islohotlar jarayonida turgandek tuyulmoqda.



1972-yil tashkil etilgan “Sharq musiqasi” kafedrasini ochishdan kutilgan natijalar haqida quyidagicha fikrlarni keltirib o‘tamiz: “Bu kafedrani ochishdan maqsad nafaqat mintaqamizdagi musiqiy meros, balki keng qamrovli o‘rta asr musiqiy risolalari, ya’ni ilmiy-nazariy tadqiqotlarni bevosita arab, fors, hindi, urdu, turkiy tillarda mutolaa etishga qodir musiqashunos-sharqshunoslarni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jahon konservatoriyalari uchun o‘rnak bo‘lishda ilk qadam edi. Ayni vaqtda ushbu kafedra doirasida musiqiy merosimizning ustozona an’anaviy ijroni talab etuvchi murakkab turlari (maqomlar va boshqalar)ni amaliy o‘zlashtirish, aniqrog‘i ushbu soha uchun xonanda va sozandalarni tayyorlash hamda xalq ijodiyoti kabineti faoliyatini folklor ekspeditsiyalari ila talabalar chiqishlarini ta’minlab, ular diqqatini yig‘ilgan durdonalarni notaga olish, tartiblashtirish, tadqiq etish uslublariga qaratish juda muhim ahamiyatga ega qadamlardan bo‘lgandi, albatta” [4].

Oradan vaqtlar o‘tdi, davrlar osha yangilangan maqsadlar sari qat’iy qadamlar qo‘yish fursatida turibmiz. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishib, erki, dini, o‘zining madaniyatini to‘liq qaytarib olgan, uchinchi renesans Yangi O‘zbekiston davrini boshladi [1]. Demak, milliy musiqamizni o‘rganish, keng targ‘ib qilish bilan, milliy ohanglarimizni butun dunyo sahnalarida jarang sochishidan mamnunmiz. O‘zbek maqom maktabining asrlar osha bizgacha yetib kelgan namunalari, yana qator avlodlarga o‘z falsafasi ila ta’sir ko‘rsatishidan umidvormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maksumova F.Q. “Boshlang‘ich maqom ta’limining metodologik masalalari” magistrlik dissertatsiya ishi, 2022-yil, Toshkent, 101-bet.
2. Maksumova F.Q. “Musiqqa arbobi, kompozitor, etnograf, pedagog, san’atshunoslik fanlari doktori, professor VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIY tavalludining 145 yilligiga” bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami 26-noyabr 2024-yil, 1 jild.
3. Belyayev B.M. Buxoro musiqqa maktabi haqida. – Samarqand: // Alanga jurnali. 1930, 2-b.
4. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: Ma’lumotnoma. “Yangi asr avlodi” 2004, 470-b.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ	28
<i>Qodirbekova Zehaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOSSITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI	70
<i>Bozorbayeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSION YONDASHUVLAR DRODALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TARBIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOJIR	81

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскароев Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJIY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI	114

ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasoy Muradjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unbayeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrakhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN R^n	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	188